Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, maxsus subyekt institutining rivojlanishi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi bilan bogʻliq. Masalan, korrupsiyaga oid jinoyatlar, mansabdorlik jinoyatlari yoki xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilish kabi holatlarda aynan maxsus subyekt belgilarini aniqlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi (Rustambayev, 2018b).

Maxsus subyekt tushunchasiga oid muhim qoida shundan iboratki, u *faqat jinoyat qonunchiligi bilan aniq belgilangan boʻlishi shart*. Ya'ni, shaxsni maxsus subyekt sifatida e'tirof etish uchun uning alohida belgilarini sud yoki tergov organlari ixtiyoriy ravishda emas, balki bevosita jinoyat-huquqiy norma – Jinoyat kodeksining Maxsus qismi moddasi dispozitsiyasida koʻrsatilgan mezonlar asosida aniqlashi lozim.

Mazkur yondashuv jinoyat huquqining asosiy prinsiplaridan biri – *qonuniylik (nullum crimen, nulla poena sine lege)* prinsipining bevosita ifodasidir. Chunki shaxs faqat qonunda aniq belgilangan hollardagina muayyan jinoyatning maxsus subyekti sifatida javobgarlikka tortilishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, maxsus subyekt belgilarini kengaytirilgan tarzda talqin qilish yoki ularga nisbatan analogiyani qoʻllash qat'iyan man etiladi. Aks holda, bu holat shaxsning huquq va erkinliklarini asossiz cheklashga olib kelishi mumkin (Abdurasulova, 2005, p. 104).

Mahalliy olimlar R. Kabulov, A.A. Otajonov va I.A. Sattiyevlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy yondashuvga koʻra, agar jinoyat sodir etishda umumiy subyekt maxsus subyekt bilan birgalikda ishtirok etsa, unda jinoyatning bevosita ijrochisi sifatida aynan maxsus subyekt e'tirof etiladi.

Bunda umumiy subyekt esa sodir etilgan qilmishning xususiyatiga qarab tashkilotchi, dalolatchi (qoʻzgʻatuvchi) yoki yordamchi (ishtirokchi) sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Mazkur pozitsiya jinoyat huquqidagi ishtirokchilik institutining mantiqiy davomidir. Chunki ayrim jinoyatlar oʻzining huquqiy tabiati jihatidan faqat maxsus subyekt tomonidan bevosita sodir etilishi mumkin (masalan, mansabdorlik jinoyatlari). Shu sababli, bunday jinoyatlarda ijrochilik maqomi faqat maxsus belgilar mavjud boʻlgan shaxsga tegishli boʻladi (Kabulov et al., 2012, p. 87).

Ilmiy adabiyotlarda bu yondashuv *"maxsus subyektning ustuvorligi prinsipi"* sifatida ham izohlanadi. Ya'ni, jinoyat tarkibida maxsus subyekt belgilarining mavjudligi ijrochini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Umumiy subyekt esa hatto jinoyatni sodir etishda faol ishtirok etgan taqdirda ham, agar u maxsus belgilarga ega boʻlmasa, ijrochi sifatida emas, balki boshqa ishtirokchi shakllarida baholanadi.

**Asosiy qism**

Oʻrganilgan jinoyat tarkibi – jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish)ni tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 243-moddasida maxsus subyekt alohida nazarda tutilmagan. Bu esa mazkur jinoyatning subyekti sifatida aqli raso boʻlgan va jinoyat qonunchiligida belgilangan yoshga, ya'ni 16 yoshga toʻlgan jismoniy shaxslar e'tirof etilishini anglatadi.

Mazkur holat jinoyat-huquqiy siyosat nuqtayi nazaridan ham muhimdir, chunki daromadlarni legallashtirish jinoyati koʻpincha keng doiradagi shaxslar tomonidan sodir etilishi mumkin boʻlgan "umumiy subyektli jinoyat" sifatida namoyon boʻladi. Shu bilan birga, amaliyotda ushbu jinoyat odatda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega boʻlgan shaxslar bilan bogʻliq holda uchrashi qayd etiladi.

Milliy jinoyat-huquqiy fan doirasida mazkur jinoyat tarkibining umumiy va turdosh obyektlarini aniqlash masalasida jiddiy bahs-munozaralar mavjud emas. Xususan, ilmiy


ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/tsul.ccj.

yondashuvlarga koʻra, ushbu jinoyatning umumiy obyekti – iqtisodiy faoliyat sohasidagi ijtimoiy munosabatlar boʻlsa, turdosh obyekti – moliyaviy tizimning barqarorligi, iqtisodiy xavfsizlik va qonuniy xoʻjalik yuritish tartibini taʼminlash bilan bogʻliq munosabatlardan iboratdir.

Statistik tahlillar shuni koʻrsatadiki, jinoyatlar soni hamda daromadlarni legallashtirish bilan bogʻliq holatlar ulushi oʻrganilgan davr mobaynida keskin tebranishlarga ega boʻlgan. Biroq soʻnggi yillarda umumiy jinoyatchilik darajasining ikki baravardan ortiq kamayishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa profilaktika choralarining kuchaytirilishi, raqamlashtirish jarayonlari va moliyaviy nazorat mexanizmlarining takomillashuvi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, iqtisodiy tahlillar Oʻzbekistonda yashirin (soya) iqtisodiyot ulushi yuqori darajada ekanligini koʻrsatadi. Ayrim baholashlarga koʻra, agar soya iqtisodiyoti ulushi 50 foiz deb olinadigan boʻlsa, yalpi ichki mahsulotning yoʻqotilishi 16–17 milliard AQSH dollarigacha yetishi mumkin.

Mazkur koʻrsatkichlar jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Xususan, xalqaro standartlar, jumladan, FATF (*Financial Action Task Force*) tavsiyalari doirasida moliyaviy monitoring tizimini kuchaytirish, shubhali operatsiyalar ustidan nazoratni takomillashtirish hamda jinoyat yoʻli bilan olingan daromadlarni aniqlash va musodara qilish mexanizmlarini rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Mazkur ilmiy tadqiqot doirasida umumilmiy metodlar majmuasidan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, tarixiy metod, qiyosiy-huquqiy metod hamda mantiqiy metod (tahlil va sintez) tadqiqotning metodologik asosini tashkil etdi.

Tarixiy metod orqali jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish institutining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, uning milliy va xalqaro huquqiy evolyutsiyasi oʻrganildi. Bu yondashuv mazkur institutning genezisini aniqlash, shuningdek, zamonaviy huquqiy tartibga solishning ildizlarini ochib berishga xizmat qildi.

Qiyosiy-huquqiy metod yordamida Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi xorijiy davlatlar tajribasi va xalqaro standartlar bilan taqqoslandi. Xususan, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi yondashuvlar, subyekt masalasi hamda javobgarlik asoslari turli huquq tizimlari kesimida tahlil qilindi. Bu esa milliy qonunchilikni takomillashtirish yoʻnalishlarini aniqlash imkonini berdi.

Mantiqiy metod (tahlil va sintez) orqali jinoyat tarkibi elementlari, xususan, subyekt masalasi, tizimli ravishda oʻrganildi. Tahlil usuli yordamida normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalar ajratib koʻrib chiqildi, sintez usuli esa ularni yagona ilmiy konsepsiya doirasida umumlashtirishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda zamonaviy yondashuvlar – tizimli tahlil, statistik maʼlumotlarni qayta ishlash hamda xalqaro tashkilotlar (jumladan, FATF va boshqa institutlar) tavsiyalarini oʻrganish elementlari ham qoʻllandi. Bu esa tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.

Xorijiy davlatlar qonunchiligini tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatining obyekti va subyekti masalasida turlicha yondashuvlar mavjud. Bu esa mazkur institutning xalqaro miqyosda bir xilda shakllanmaganligini, balki milliy huquq tizimlarining oʻziga xos xususiyatlari bilan belgilanayotganini koʻrsatadi.

Xususan, Qozogʻiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 218-moddasida pul mablagʻlarini legallashtirish (yuvish) uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan boʻlib, unda jinoyat subyekti masalasi yanada differensiallashgan holda tartibga solingan. Mazkur modda doirasida nafaqat umumiy subyekt, balki maxsus subyekt ham ajratib koʻrsatiladi (Republic of Kazakhstan, 2026).

Jumladan, maxsus subyekt sifatida:

– oʻz xizmat mavqeyidan foydalangan holda jinoyat sodir etgan shaxslar;
– mansabdor shaxslar;
– mas’ul davlat lavozimini egallagan shaxslar e’tirof etiladi.

Bunday yondashuv jinoyat-huquqiy siyosatni differensiallash va javobgarlikni individuallashtirish prinsiplariga mos keladi. Chunki xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etilgan legallashtirish jinoyatlarining ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori boʻlib, ularga nisbatan ogʻirroq javobgarlik choralarini qoʻllash zaruratini yuzaga keltiradi.

Ilmiy nuqtayi nazardan qaralganda, bunday model Kvalifikatsiyalovchi belgilar orqali maxsus subyektni aniqlash konsepsiyasiga asoslanadi. Ya’ni, jinoyat tarkibida maxsus subyekt belgilarining mavjudligi jinoyatning ogʻirlashtiruvchi holati sifatida namoyon boʻladi.

Taqqoslash natijalari shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligida mazkur jinoyat tarkibi umumiy subyekt asosida shakllantirilgan boʻlsa, Qozogʻiston tajribasida maxsus subyekt instituti ham keng joriy etilgan. Bu holat milliy qonunchilikni takomillashtirish jarayonida xorijiy tajribani inobatga olish zarurligidan dalolat beradi.

Xorijiy davlatlar tajribasini chuqurroq tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatida maxsus subyekt institutiga alohida e’tibor qaratilgan.

Xususan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 174- va 174.1-moddalari dispozitsiyalarida maxsus subyekt alohida ajratib koʻrsatilgan boʻlib, unda jinoyatni oʻz xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etgan shaxslar alohida qayd etiladi. Mazkur yondashuv jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini oshiruvchi omil sifatida xizmat mavqeyidan foydalanish holatini alohida kvalifikatsiyalovchi belgi sifatida mustahkamlashga qaratilgan (Russian Federation, 2026).

MDH davlatlari doirasida esa Moldova Respublikasi qonunchiligi alohida qiziqish uygʻotadi. Jumladan, Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksining 243-moddasiga muvofiq, jinoiy daromadlarni legallashtirish uchun nafaqat jismoniy shaxslar, balki yuridik shaxslar ham jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Ushbu normaga koʻra, yuridik shaxslarga nisbatan:

– yirik miqdordagi jarimalar;
– muayyan faoliyat bilan shugʻullanish huquqidan mahrum etish;
– yuridik shaxsni tugatish (likvidatsiya qilish) kabi jazolar qoʻllanishi nazarda tutilgan (Republic of Moldova, 2026).

Shuningdek, Niderlandiya jinoyat qonunchiligida ham mazkur masala tizimli tarzda tartibga solingan. Xususan, Niderlandiya Jinoyat kodeksining 51-moddasida jinoyat sodir etilishi nafaqat jismoniy, balki yuridik shaxslar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkinligi belgilangan. Bu esa korporativ javobgarlik institutining rivojlanganligini koʻrsatadi (Netherlands Criminal Code, 2026).

Hozirgi kunda jahon amaliyotida 70 dan ortiq davlatlarda yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi instituti nazarda tutilgan. Ushbu tendensiya zamonaviy jinoyat huquqining rivojlanish yoʻnalishlaridan biri sifatida e’tirof etilib, ayniqsa, iqtisodiy va moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etmoqda (Otajonov, 2018, p. 9).

Mashhur jinoyat huquqi nazariyotchilari A.B. Naumov va A.V Brilliantovning ilmiy qarashlariga koʻra, jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatining bevosita obyekti sifatida tadbirkorlik faoliyatini yoki boshqa iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning belgilangan tartibini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar e’tirof etiladi.


ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/tsul.ccj.

Mazkur yondashuv jinoyatning iqtisodiy-huquqiy mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Chunki legallashtirish jarayoni aslida noqonuniy daromadlarni qonuniy iqtisodiy muomalaga kiritish orqali iqtisodiy tizimning normal faoliyatiga zarar yetkazadi va uning institutsional asoslarini buzadi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, yuqoridagi ilmiy qarashlar bizga muhim xulosaga kelish imkonini beradi: tadbirkorlik faoliyati ishtirokchilari, ya’ni xo‘jalik yurituvchi subyektlar, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslar va iqtisodiy muomalada faol qatnashuvchi boshqa subyektlar – mazkur jinoyatning ehtimoliy subyektlari sifatida e’tirof etilishi mumkin (Naumov, 2007; Brilliantov, 2015).

Navbatda jinoyatning subyektiv tomoni tahliliga to‘xtalib o‘tamiz. Akademik M.X. Rustambayevning ta’kidlashicha, jinoyatning subyektiv tomoni – shaxsning o‘zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishga nisbatan ruhiy munosabati bo‘lib, u jinoyat qonunchiligida qilmishni jinoiy deb topish uchun asos bo‘ladi hamda ayb, motiv, maqsad va emotsiyalar bilan tavsiflanadi. Umuman olganda, mazkur masala yuzasidan M. Usmonaliyev, R. Kabulov, A.A. Otajonov, B.J. Matmuratovlar tomonidan bildirilgan ilmiy qarashlarga qo‘shilish maqsadga muvofiqdir (Usmonaliev, 2005; Kabulov et al., 2012; Matmuratov, 2018).

Jinoyatning subyektiv tomoni – bu jinoyatning ichki (obyektiv tomonga nisbatan) belgisi hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda subyektiv tomon shaxsning o‘zi tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishga nisbatan ichki, ruhiy munosabati sifatida ta’riflanadi (Rarog, 2001, p. 15).

Jinoyatning subyektiv tomoni jinoyat sodir etilishidan avval shakllanadi va u motiv hamda maqsad ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Mazkur psixik jarayon keyinchalik jinoyat sodir etilishi davomida ham shaxs faoliyatiga hamroh bo‘lib, jinoiy natija yuzaga kelguniga qadar davom etadi.

Boshqacha aytganda, subyektiv tomon – bu shaxsning o‘z qilmishiga bo‘lgan ichki, ongli munosabati bo‘lib, u nafaqat jinoyat sodir etilishidan oldingi qaror qabul qilish bosqichini, balki uni amalga oshirish jarayonini ham qamrab oladi. Shu ma’noda, u shaxs xatti-harakatlari ustidan o‘ziga xos “ichki nazorat” (self-control) mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Subyektiv tomon quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

– *ayb shakli* (qasd yoki ehtiyotsizlik);

– *motiv* (shaxsni jinoyat sodir etishga undagan ichki sabablar);

– *maqsad* (erishilishi ko‘zlangan natija).

Mazkur elementlar jinoyatning psixologik mohiyatini ochib beradi va jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qasdning mavjudligi, uning turi (to‘g‘ri yoki bilvosita qasd), shuningdek, motiv va maqsadning aniqlanishi jinoyat-huquqiy baho berishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi (Antonyan et al., 1981, p. 227).

Ko‘pchilik jinoyat huquqi tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra, jinoyatning subyektiv tomoni – jinoyat sodir etgan shaxsning noqonuniy xatti-harakatini belgilovchi va asoslovchi psixik jarayonlar majmuasidan iboratdir. Ushbu yondashuv jinoyatning ichki (ruhiy) mexanizmini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, shaxsning ongli faoliyatini huquqiy baholashda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Ilmiy adabiyotlarda umumiy qabul qilingan nuqtayi nazarga ko‘ra, har qanday psixik jarayon uch asosiy tarkibiy jihat orqali tavsiflanadi: kognitiv (bilish), irodaviy *(volitiv)* va emotsional (hissiy) komponentlar.

*Kognitiv jihat* shaxsning sodir etilayotgan qilmishning ijtimoiy xavfliligini anglashini, uning oqibatlarini oldindan ko‘ra bilishini ifodalaydi. Aynan ushbu element aybning intellektual tarkibini tashkil etadi va qasd mavjudligini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.

*Irodaviy jihat* esa shaxsning oʻz xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyati, jinoyat sodir etishga boʻlgan ichki qarori va ushbu qarorni amalga oshirishga yoʻnaltirilgan ongli faoliyatini anglatadi. Bu komponent jinoyat sodir etishda shaxsning irodaviy yoʻnalishini ifodalaydi.

*Emotsional jihat* shaxsning hissiy holati, kechinmalari, affekt, qoʻrquv, nafrat, manfaatdorlik yoki boshqa hissiy omillar orqali namoyon boʻladi. Mazkur jihat jinoyat sodir etilishining psixologik fonini tashkil etib, ayrim hollarda jinoyatni kvalifikatsiya qilishda yoki jazoni individuallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi (Gilyazev, 1991, p. 45).

Amaldagi jinoyat-huquqiy doktrinada tegishli normalarga berilgan sharhlarning aksariyatida ayb shakli sifatida toʻgʻri qasd (bevosita qasd) aniq belgilab berilgan. Bu esa jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatining psixologik mohiyati ongli va maqsadga yoʻnaltirilgan faoliyat bilan chambarchas bogʻliqligini koʻrsatadi.

Shu bilan birga, Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning subyektiv tomoni toʻliq aniqlik kasb etmaganligini qayd etish lozim. Xususan, mazkur modda dispozitsiyasida unda koʻzda tutilgan harakatlarni amalga oshirishning maqsadi toʻgʻridan toʻgʻri ifodalanmagan, garchi moddaning nomida “legallashtirish” (yaʼni, noqonuniy daromadlarga qonuniy tus berish) atamasi qoʻllangan boʻlsa-da.

Nazariy jihatdan, shaxs moliyaviy operatsiya yoki boshqa bitimni amalga oshirar ekan, u ushbu harakatlarning mohiyatini anglaydi va ularni aynan qonuniy koʻrinishga keltirishni istaydi. Shu sababli, mazkur jinoyatning subyektiv tomoni shaxsning:

– jinoiy yoʻl bilan olingan daromadlarning kelib chiqishini anglashini;
– ularga qonuniy koʻrinish berish istagini;
– ushbu natijaga erishishga qaratilgan ongli faoliyatini oʻz ichiga oladi.

Shu nuqtayi nazardan, jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyati, bizning fikrimizcha, aynan toʻgʻri qasd bilan sodir etiladigan jinoyatlar toifasiga kiradi. Yaʼni, jinoyat subyekti nafaqat oʻz harakatlarining ijtimoiy xavfliligini anglaydi, balki aynan jinoiy natijaga – daromadlarga qonuniy tus berishga erishishni xohlaydi.

Biroq ilmiy bahs nuqtayi nazaridan yana bir muhim masala yuzaga keladi – ushbu jinoyatni *bilvosita qasd (egri qasd)* bilan sodir etish ehtimoli mavjudmi yoki yoʻqmi? Ayrim hollarda shaxs daromadlarning jinoiy kelib chiqishini toʻliq anglamasligi, lekin buni taxmin qilishi va bunga ongli ravishda yoʻl qoʻyishi mumkin. Shu bois, jinoyat tarkibini yanada aniqlashtirish maqsadida bilvosita qasd ehtimolini ham nazariy jihatdan inkor etib boʻlmaydi.

Mazkur jinoyatning yana bir muhim xususiyati uning iqtisodiy tabiatidadir. Jinoiy daromadlarni legallashtirish moliyaviy-iqtisodiy qiymatlar bilan bevosita bogʻliq boʻlib, unda *gʻaraz (manfaatdorlik)* elementi yaqqol namoyon boʻladi. Biroq amaldagi qonunchilikda, oʻgʻrilik va boshqa mulkka qarshi jinoyatlar tarkibidan farqli oʻlaroq, ushbu motiv alohida urgʻu bilan koʻrsatilmagan.

Shu munosabat bilan quyidagi ilmiy-amaliy xulosaga kelish mumkin:

jinoyatning motivi tushunchasini umumiy nazariy darajada aniqlashtirish;

jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatida gʻarazli motivning oʻrnini aniq belgilash;

modda dispozitsiyasida jinoyat maqsadini normativ jihatdan mustahkamlash zarurati mavjud.

P.S. Dagel va D.P. Kotov jinoyat motivini “Ehtiyojlar tizimi asosida shakllanadigan, ongli ravishda anglangan va baholangan undov boʻlib, ijtimoiy xavfli qilmishning gʻoyaviy asosi hamda uni oqlovchi sababdir” deb taʼriflaydilar. (Dagel & Kotov, 1974). A.I. Rarog jinoyat


ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/tsul.ccj.

motivini shaxsning muayyan ehtiyoj va manfaatlari bilan bogʻliq holda yuzaga keladigan ichki undovlari sifatida taʼriflaydi; aynan shu undovlar shaxsni jinoyat sodir etishga qaror qabul qilishga olib keladi va uni amalga oshirish jarayonida yoʻnaltirib turadi (Rarog, 2007).

Dispozitsiyadan koʻrinib turibdiki, Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 243-moddasida "bilgan holda" (yaʼni, daromadning jinoiy kelib chiqishini anglash) belgisi toʻgʻridan toʻgʻri ifodalanmagan. Holbuki, MDH davlatlarining qator jinoyat qonunchiligida (Rossiya, Armaniston, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston, Turkmaniston) mazkur element jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatining majburiy subyektiv belgisi sifatida alohida qayd etiladi.

Mazkur farq, ehtimol, jinoyat-huquqiy normalarni shakllantirish jarayonida MDH doirasida qabul qilingan ayrim namunaviy (model) normativ-huquqiy hujjatlar inobatga olinganligi bilan izohlanadi.

Xususan, MDH davlatlari Parlamentlararo Assambleyasi tomonidan 1996-yil 2-noyabrda qabul qilingan "Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish toʻgʻrisida"gi Tavsiyaviy qonun hujjatining 15-moddasida (jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish) "legallashtirish" tushunchasi quyidagicha izohlangan: noqonuniy manbalarni, daromadlarning kelib chiqish tabiati, joylashuvi, joylashtirilishi, harakati yoki ularga boʻlgan haqiqiy egalikni yashirish yoki oshkor etmaslik, agar ushbu mablagʻlar yoki boshqa mol-mulk jinoiy yoʻl bilan olinganligi oldindan maʼlum (bilinib turilgan) boʻlsa.

Shuningdek, ushbu yondashuv "Noqonuniy yoʻl bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish toʻgʻrisida"gi Model qonunning 2-moddasi 2-bandida ham mustahkamlangan boʻlib, unda daromadlarning bilib turib noqonuniy olinganligi asosiy kvalifikatsiyalovchi belgi sifatida belgilangan.

Ilmiy nuqtayi nazardan, "bilish" *(knowledge)* elementi jinoyatning subyektiv tomonida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ushbu belgi orqali:

– shaxsning daromadlarning jinoiy kelib chiqishini anglaganligi;
– ularni legallashtirishga ongli ravishda kirishganligi;
– qasdning mavjudligi va yoʻnalishi aniqlanadi.

Mazkur elementning dispozitsiyada bevosita aks ettirilmaganligi esa bir qator nazariy va amaliy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin:

– jinoyatni kvalifikatsiya qilishda turlicha yondashuvlar yuzaga kelishi;
– ayb shaklini aniqlashda murakkabliklar paydo boʻlishi;
– sud-tergov amaliyotida bir xillikning buzilishi.

Shu sababli, ilmiy asoslangan yondashuv sifatida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

– modda dispozitsiyasida "bilib turib" *(knowingly)* belgisi aniq ifodalanishi;
– jinoyatning subyektiv tomonini normativ darajada aniqlashtirish;
– xalqaro standartlar va MDH Model qonunchiligi bilan uygʻunlikni taʼminlash (Electronic Fund of Legal and Scientific-Technical Information, 2026).

Xalqaro huquqiy manbalar tahlili shuni koʻrsatadiki, jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatida subyektiv tomon elementlarini aniqlashda moslashuvchan va dalillarga asoslangan yondashuv qoʻllanadi.

Xususan, BMTning Giyohvandlik va jinoyatchilik boʻyicha boshqarmasi hamda Xalqaro valyuta jamgʻarmasi tomonidan ishlab chiqilgan 2003-yildagi Model qonunchilikka muvofiq (5.2.1-modda), jinoyat tarkibining zaruriy elementi boʻlgan bilim *(knowledge)*, qasd *(intent)* yoki maqsad *(purpose)* mavjudligi obyektiv faktik holatlar asosida aniqlanishi mumkin.

Shunga oʻxshash norma Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi BMT konvensiyasining 6-moddasi 2-bandida ham mustahkamlangan boʻlib, unda jinoyat tarkibining subyektiv elementlari – xabardorlik, niyat yoki maqsad – ishning obyektiv faktik holatlaridan kelib chiqib aniqlanishi mumkinligi belgilangan.

Mazkur yondashuv jinoyatni isbotlash jarayonida muhim ahamiyatga ega, chunki amaliyotda shaxsning ichki ruhiy holatini toʻgʻridan toʻgʻri aniqlash murakkab boʻlib, u koʻpincha tashqi xatti-harakatlar, operatsiyalar xarakteri va boshqa obyektiv dalillar orqali aniqlanadi.

Milliy qonunchilikka murojaat qiladigan boʻlsak, Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 243-moddasida nazarda tutilgan harakatlar jinoyatning formal tarkibiga mansub boʻlib, unda jinoyatning tugallanganligi jinoiy natijaning yuzaga kelishiga bogʻliq emas. Shu bilan birga, mazkur jinoyat odatda toʻgʻri qasd bilan sodir etilishi eʼtirof etiladi.

Xulosa qilib aytganda, jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatining subyektiv tomonini takomillashtirish masalasi milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga yaqinlashtirishning muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

**Xulosa**

Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro-huquqiy majburiyatlari hamda milliy iqtisodiy tizimning barqaror faoliyatini himoya qilish manfaatlariga asoslanadi. Mazkur yoʻnalishdagi xalqaro standartlar ushbu murakkab hodisaga qarshi kurashishda umumiy yondashuvlarni belgilab beradi, bunda har bir davlat uchun xos boʻlgan xususiyatlar, shuningdek, transmilliy jinoyatchilikdan himoya qilish zarurati inobatga olinadi.

Shu bilan birga, xalqaro standartlarga rioya etish jarayonida davlat milliy huquqiy tizimining oʻziga xos jihatlari, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va huquqni qoʻllash amaliyotini eʼtibordan chetda qoldira olmaydi. Aynan ushbu omillar xalqaro talablar va milliy manfaatlar oʻrtasida muvozanatni taʼminlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Nazariya, qonunchilik va huquqni qoʻllash amaliyoti tahlili shuni koʻrsatadiki, jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatining ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori boʻlishiga qaramay, Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 243-moddasini qoʻllash amaliyoti ushbu jinoyatning real koʻlamiga toʻliq mos kelmaydi.

Shu munosabat bilan maqolada quyidagi ilmiy-amaliy xulosalar asoslantiriladi:

– xorijiy davlatlar tajribasini, xususan, yuridik shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish amaliyotini chuqur tahlil qilish zarur;

– “legallashtirish” va “yuvish” *(laundering)* atamalarini birgalikda qoʻllash ilmiy va normativ jihatdan maqbul ekanligi asoslanadi;

– jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish boʻyicha idoralararo hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan yillik kompleks dasturlarni ishlab chiqish zarurligi tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

– jinoiy daromadlarni legallashtirishga oid ishlar boʻyicha sud amaliyotini muntazam umumlashtirib borish;

– olingan materiallar asosida jinoyatchilikning ushbu turining samarali oldini olish va unga qarshi kurashish boʻyicha analitik ishlarni kuchaytirish;

– mazkur toifadagi jinoyatlarni tergov qilish amaliyotiga oid depersonalizatsiya qilingan (shaxsiy maʼlumotlardan xoli) ishlar toʻplamlarini nashr etish orqali huquqiy va moliyaviy maʼlumotlar ochiqligini taʼminlash.

Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin



ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/tsul.ccj.

qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunini yanada takomillashtirish zarur. Xususan, unda zamonaviy xavf-xatarlarni hisobga olgan holda:

– virtual aktivlar bilan bog'liq munosabatlar;

– moliyaviy tergov mexanizmlari;

– raqamli iqtisodiyot sharoitidagi yangi tahdidlar bo'yicha normalarni kengaytirish lozim.

Mazkur jarayonda FATF tavsiyalarini inobatga olish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning xalqaro e'tirof etilgan standartlarini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish masalalari o'zining keng ko'lamliligi va murakkabligi bilan ajralib turadi. Shu bois, ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, qonunchilikni takomillashtirish hamda amaliyot samaradorligini oshirish bo'yicha izchil ishlarni davom ettirish zarur.

## REFERENCES

1. Abdurasulova, K. A. (2005). *Special subject of crime*. TSUL Publ.

2. Antonyan, Y. M., Baranovskiy, N. A., Dagel, P. S., Dubovik, O. L., et al. (1981). *Mechanism of criminal behavior* (V. N. Kudryavtsev, Ed.). Moscow.

3. Brilliantov, A. V. (2015). *Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation* (Vols. 1–2). Prospekt.

4. Dagel, P. S., & Kotov, D. P. (1974). *The subjective aspect of crime and its establishment*. Voronezh.

5. Electronic Fund of Legal and Scientific-Technical Information. (2026). http://docs.cntd.ru/document/901856751

6. Gilyazev, F. G. (1991). *Guilt and criminogenic behavior of personality*. VZPI Publishing House.

7. Kabulov, R., Otajonov, A. A., Sattiev, I. A., et al. (2012). *Qualification of crimes: Textbook for higher educational institutions of the Ministry of Internal Affairs*. Tashkent.

8. Kabulov, R., Otajonov, A. A., et al. (2012). *Criminal law (General Part)* (2nd ed.). Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.

9. Matmuratov, B. J. (2018). Some issues of qualification based on the subjective aspect of crime. *Bulletin of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*, (3), 3–8.

10. Naumov, A. V. (2007). *Russian criminal law: General part. Course of lectures* (Vol. 1). Yuridicheskaya Literatura.

11. National Legal. (2026). Internet Portal of the Republic of Belarus. http://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900275

12. Netherlands Criminal Code. (2026). http://law.edu.ru/

13. Otajonov, A. A. (2018). Regulation of criminal liability of legal entities in foreign legislation and issues of introducing it into national legislation. *Bulletin of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*, (2), 9–15.

14. Pavlov, V. G. (2001). *The subject of crime*. Yuridicheskiy Tsentr Press.

15. Rarog, A. I. (2001). *The subjective aspect of crime and qualification of crimes*. Moscow.

16. Rarog, A. I. (2007). *The subjective aspect of crime and qualification*. Moscow.

17. Republic of Kazakhstan. (2026). *Criminal Code of the Republic of Kazakhstan*. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252

18. Republic of Moldova. (2026). *Criminal Code of the Republic of Moldova*. http://lex.justice.md/ru/331268/

19. Russian Federation. (2026). *Criminal Code of the Russian Federation*. http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/

20. Rustambayev, M. H. (2018a). *Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan: Special Part* (Vol. 1). Publishing House of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.

21. Rustambayev, M. H. (2018b). *Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan: Special Part* (Vol. 2). Publishing House of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.

22. Usmonaliev, M. (2005). *Criminal law (General Part): Textbook for higher educational institutions*. Yangi Asr Avlodi.



ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/tsul.ccj.

# KRIMINOLOGIYA
## VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 2-son

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026
ISSUE DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ.6.2.